



## “SOVUQ URUSH” DAVRIDA XALQARO MUNOSABATLARNING JADALLASHUVI (AQSH VA SOVET ITTIFOQI DAVLATLARI MUNOSABATLARI MISOLIDA)

Isroilov Zohidjon Vohidjon o'g'li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Tarix fakulteti Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)  
yo'nalishi 5-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8149361>

### ARTICLE INFO

Received: 07<sup>th</sup> July 202

Accepted: 14<sup>th</sup> July 2023

Online: 15<sup>th</sup> July 2023

### KEY WORDS

NATO, SSSR, AQSh, Afg'oniston, Shimoliy Atlantika bitimi, Yevropa va Shimoliy Amerika, «sovuq urush», «ikki qutbli dunyo», Iosif Stalin, Uinston Cherchill, Fulton, Amerika universiteti, «temir parda», «Sharqiy kommunizm», BMT, «Berlin devori», GFR, GDR, Varshava tashkiloti, O'YK kengashi, Potsdam konferensiyasi, «Marshall rejasi», «Berlin inqirozi».

### ABSTRACT

*XX asr ikkinchi yarmida dunyodagi siyosiy vaziyat yirik davlatlar AQSH va sobiq Sovet Ittifoqi o'rtasidagi muxolifati shakllanishi va ular o'rtasidagi «Sovuq urush» siyosati bilan xarakterlanadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyodagi kuchlar nisbatining ikki qismga ajralishi Yevropa va Osiyo xalqlarining bu ikkala davlat tarafdorlari sifatida ikki ijtimoiy tizim uchun xizmat qilishi bilan belgilandi. AQSH hamkorligi ostida Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tarkib topdi va undan so'ng g'arbiy siyosiy tashkilot Shimoliy Atlantika g'arbiy bloki (NATO) tashkil etildi. Shimoliy Atlantik G'arbiy tashkilotining tuzilishi dunyoning ikki qutbiga ajralishiga olib keldi. Shu vaqtning o'zida Vashingtonda G'arbiy Yevropa davlatlarining integratsiyasi masalasi muammo bo'lib tutar edi.*

Yarim asrdan oshiq davr mobaynida mavjud bo'lib kelgan Ittifoq ham atrofdagi dunyo ham NATO asoschilari ko'z oldiga keltira olmagan yo'nalishlarda rivojlandi. Strategik muhit rivojlanishi davom etishi bilan bir vaqtda NATOning isloh etish jarayoni ham jadallashib bormoqda. O'tmish bilan qiyoslaganda, NATO hozirda xavfsizlik borasida yanada kengroq ko'lamdagi murakkab muammolar bilan shug'ullanmoqda va u o'z hududidagi aholisini himoya etish bilan birgalikda chet eldagi o'z fuqarolarini ham himoya etishga majbur. Ommaviy qirg'in qurollari tarqalishi va terrorizm kabi tahdidlar chegara bilmaydi va bu o'z navbatida NATOni ham o'z qo'shinlarini Afg'oniston kabi yiroq yurtlarga yuborish va saqlash qobiliyatiga ega bo'lishga undaydi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, NATO ushbu yangi talablarga javob bera olish uchun zaruriy vositalar va salohiyatini rivojlantirmoqda va ushbu ko'p sonli muammolarni yechishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarga o'z hissasini qo'shmoqda. Garchi a'zo davlatlar boshlaridan kechirayotgan tahdid turlari va NATOning ushbu tahdidilarga qarshi kurash usullari o'zgarayotgan bo'lsada ittifoqdagi xamkorlikning ustuvor yo'nalishlari

<sup>1</sup> Городетский А.Е. «План Маршала» - путь к стабилизации и возрождению Европы. М.1993. С.50



Shimoliy Atlantika bitimi tamoyillariga sodiq qolmoqda. Kollektiv mudofaa tamoyili ta'sis bitimining negizidan joy olgan bu tamoyil o'z a'zolarini birlashtiruvchi va birg'birlarini himoya qilishda fidokorlikka undovchi o'ziga xos va mustahkam poydevor bo'lib kelmoqda. NATO xavfsizlikka oid murakkab muammolarni yechish uchun Yevropa va Shimoliy Amerika manfaatlarini bog'lovchi va kelajak avlodlar farovonligini ko'zlovchi hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tuzilmani yaratib bermoqda.

Rasman «sovuq urush»ning boshlanishi 1946-yil 5-martda sobiq Angliya bosh vaziri Uinston Cherrchillning Fultondagi Amerika universitetida so'zlagan nutqida elon qilindi Uinston Cherrchill «Sharqiy kommunizm» bilan kurash uchun ingliz-amerika xarbiy ittifoqini tashkil yetishga chaqirdi<sup>2</sup>. U urushdan so'ng totalitarizm tasiriga tushib qolgan Sharqiy Yevropaning erkin demokratik g'arbdan ajratib turuvchi «temir parda» xaqida so'zladi SSSR bilan natsizmga qarshi birlashgan Yevropa endi SSSRning o'ziga qarshi birlashdi<sup>3</sup>. Biroq sovet xavfi oldidagi qo'rquv soxta bo'lib asosga yega emas edi. Sovet ittifoqi urush paytida ko'p talofat ko'rgan bo'lib yangi qarama qarshiliklarga jurat etmasdi G'arb davlatlarining hukmron doiralari bundan yaxshi xabardor yedi. Buning ustiga 1949-yilgacha AQSH atom bombasiga monopol hukmron bo'lib uni qo'llash haqidagi birgina do'q po'pisaning o'zi har qanday tajovuzkorlikni to'xtatish uchun yetarli edi. Gap bunda emas edi. G'arb mamlakatlarining o'zida aholi o'zgarishlarini kutardi.

Osiyo va Afrika siyosiy erkinliklar berilishini talab qilmoqda edi. Cherrchill aslida mavjud ahvolni saqlab qolishga chaqirdi. Yadro quroli «sovuq urush» vositasi bo'ldi. AQSH uni ishlab chiqarish va bu sohadagi tadqiqotlar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish rejasini ishlab chiqdi. Bu reja 1946-yilda BMTga taqdim etildi va u istalgan mamlakatda bunday tadqiqotlarni tekshirish huquqini ko'zda tutdi.

SSSR bu rejani inkor qildi va 1946-yilda o'z atom bombasini ilk sinovdan o'tkazdi va shundan boshlab «sovuq urush» yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarildi. AQSH Potsdam konferensiyasi qarorlarini buzgan holda G'arbiy Germaniyada hukumat tuzishga unda pul islohotini o'tkazish haqida maxfiy muzokaralar o'tkazdi<sup>4</sup>.

AQSH va g'arbiy davlatlar sovet ittifoqining Germaniya hududidan barcha okkupatsiya qo'shinlarini olib chiqib ketishni ko'zda tutuvchi tinchlik shartnomasini tayyorlash va umumgerman organlarini tuzish haqidagi takliflarini rad etdi. Bu hol sovet qo'shinlari tomonidan Berlinga kirish yo'llarini qurshab olish va 1948- yilgi «Berlin inqirozi» ga olib keldi<sup>5</sup>. Butun yil mobaynida Amerika samolyotlari sovet okkupatsiyasi hududida bo'lgan G'arbiy Berlin uchun hamma narsalarni ta'minlash. AQShning ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro mavqeyini tiklash va uni dunyoga hukmron qilish maqsadi mana shunaqa doktrina va siyosiy bosimlar bilan boshlanib izini oqlash uchun Yevropada iqtisodni tiklash beg'araz yordami siyosati bilan belgilanishi AQShning dunyodagi faol kuchga aylanganligini ko'rsatib turardi.

AQShning Yevropa davlatlarini iqtisodini tiklash uchun qo'llagan «Marshall rejasi» siyosati o'ziga xos xalqaro mavqeyida o'rin tutadi. «Marshall rejasi» Yevropa davlatlar

<sup>2</sup> Городетский А.Е. «План Маршала» - путь к стабилизации и возрождению Европы. М.1993. С.56

<sup>3</sup> Дементев В.Е., Олевская Е.М. «План Маршала»: взгляд из сегодняшней. М. 1993. С.147.

<sup>4</sup> Дементев В.Е., Олевская Е.М. «План Маршала»: взгляд из сегодняшней. М. 1993. С.147.

<sup>5</sup> Симония Н.А. Движение неприсоединения – важный фактор международной политики. М., 1978 С.15.



tomonidan iliq kutib olingan bo'lsa Osiyo davlatlari jumladan SSSR uni harbiy-siyosiy maqsadlar yo'lida olib borilgan harakat deya baholaydi<sup>6</sup>. Uinston Cherrchill «Marshall rejasi»ga nisbatan «Insoniyat tarixidagi eng beg'araz yordam» deya baho bersa Iosif Stalin bunga Amerika imperializmi Yevropadagi ekspansiyasi sifatida, Moskva urushning yo'qolishi to'g'risida qanday umid bildirsa Vashington kommunizm xavfidan qutulishga umid bildirishi darajasida deya baho beradi.

«Marshall rejasi» Yevropa davlatlarining iqtisodini tiklash bilan chegaralanib qolmay, balki, siyosiy ahamiyat ham kasb etishi «Marshall rejasi»ni tuzishdayoq belgilab qo'yilgan edi «Marshall rejasi»ning Yevropada tadbqiq eitila boshlanishi bilanoq kommunizm tarafdorlarning obro'yi tusha boshladi<sup>7</sup>.

Kommunizm tarafdorlari bo'lgan davlatlar bu borada hech qanday amaliy qarshi choralar qo'llay olmadi. 1949 yilda SSSR o'z atom quroliga ega bo'lgandan so'ng dunyo siyosiy arenasida ikki qutbga ajralish ro'y berdi. AQShning dunyodagi hukumronlik mavqeyi uchun intilishi endi «qurollanish poygasi» sifatida baholana boshladi. Mazkur maqolaning maqsadi AQShning «Marshall rejasi» va uning oqibatlarini to'laroq o'rganish uning xalqaro siyosiy maydondagi o'rnini aniqroq tushunib yetish, AQShning ikkinchi jahon urushidan keyingi siyosatlarining boshlanish sifatida uning jahon tarixidagi sezilarli o'rnini belgilash uchun qilingan ish sifatida olishimiz mumkin.

«Marshall rejasi»ni ishlab chiqilishi va uning tadbqiq etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kengroq va aniqroq tarzda o'rganib chiqish «Marshall rejasi» ning oqibatlarini tarixiy xolislik bilan baholash, analiz qilishga harakat qilish bilan cheklanmasdan tarixiy voqeilikka xolisona baho berishdir<sup>8</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida yurtimizning faol tashqi siyosati to'g'risida fikr yuritilar ekan, tarixiy siyosiy tajribalardan faol foydalanish to'g'risida ham fikrlar beriladi. Shu sababli urushdan keyingi AQSH tashqi siyosati yutuqlaridan o'rinli foydalana bilish imkoniyatlarini tasavvur qilish va baholashga iloji boricha urinib ko'rish.

Dunyoning yetakchi davlatlari bo'lgan juda katta siyosiy – iqtisodiy, harbiy texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan G'arb davlatlari bilan mustaqil O'zbekistonimizning aloqalari bugungi kunda rivojlanib bormoqda. Bu borada turli aloqalar tashkil etilmoqda. Hozirgi kunda dunyo siyosiy maydonida o'z yo'nalishiga ega bo'lgan davlatlar va boshqa davlatlarning yo'nalishlarini baholay olish va davlatimizning bu o'rinda olib borayotgan ishlarini yaxshiroq tushuna bilish har bir tarixchining zimmasidagi burchidir. Shu sababli nafaqat vatanimiz tarixi balki jahon mamlakatlari tarixini o'rganish xam katta yutuqlarga erishishga imkoniyat yaratib beradi. Mavzuning dolzarbligi bozor iqtisodiyotiga intilayotgan davlatimizning chet davlatlar bilan aloqalarida tarixiy voqeeliklaridan bexabar qolmaslik

<sup>6</sup> Международные отношения после второй мировой войны. В трех томах. Т. М., 1965. С.142

<sup>7</sup> История дипломатии. Т.У, кн.1 /Под ред. А.А.Громыко, И.Н.Земскова, В.А.Зорина и др. При участии: А.С.Аникина, В.Н.Белецкого, Е.Ю.Богуща, Анат.А.Громыко и др. М.: Изд-во полит, лит-ры, 1974. С.145

<sup>8</sup> Тузмухамедов Р.А. Движение неприсоединения и мировая политика. В кн.: Движение неприсоединения в документах и материалах. М., Глав. ред. восточ. лит-ры изд-ва "Наука", 1979, С.122



uchun qilingan xarakatlardir. Ushbu mavzu xozirda respublikamizdagi yirik olimlar tomonidan tadqiqot qilinmoqda.

Yaponiya Tinch okeanida urush harakatlarining boshlab yuborgandan keyin o'sha yili 11 dekabrda Germaniya va Italiya AQShga qarshi, 8 dekabrda AQSH Yaponiyaga, so'ng Germaniya va Italiyaga qarshi, Angliya o'z dominionlari bilan birga Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildilar. Xitoy rasmiy ravishda Yaponiya, Germaniya va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi. Uch agressiv davlat Germaniya, Italiya va Yaponiya 1941 yil 11 dekabrda Uchlar ahdomasiga (1940y.) qo'shimcha yangi harbiy ahdni imzoladilar. Bunga ko'ra birgalikda va barcha vositalar bilan Angliya va AQShga qarshi urush olib borish o'zaro roziliksiz ular bilan yarashmaslik va sulh tuzmaslik majburiyatini oldilar. 1942 yil 18 yanvarda Germaniya, Italiya va Yaponiya o'z urush harakatlari zonalarining chegaralari to'g'risida bitim imzoladilar. Yaponiya zonasi qilib Uraldan Sharqqa–Amerikaning xarbiy qirg'oqlarigacha bo'lgan hududlar<sup>9</sup>. Germaniya va Italiya zonasi qilib Uraldan g'arbga Amerikaning Sharqiy qirg'oqlarigacha bo'lgan xudud va Amerika qita'si belgilandi.

## References:

1. Дементев В.Е., Олевская Е.М. «План Маршала»: взгляд из сегодняшней. М. 1993.
2. России. Российский экономический журнал. № 8, 1993 г.
3. «Развития страны в современном мире». Изд. «Наука». Москва 1984 год.
4. Б.А.Введенский. «Советская энциклопедия», 1,2 т. М. 1964.
5. Городетский А.Е. «План Маршала» - путь к стабилизации и возрождению Европы. М.1993.
6. Э.Гиденс «Социология» Т-2002
7. Тузмухамедов Р.А. Движение неприсоединения и мировая политика. В кн.: Движение неприсоединения в документах и материалах. М., Глав. ред. восточ. лит-ры изд-ва "Наука", 1979,
8. История дипломатии. Т.У, кн.1 /Под ред. А.А.Громыко, И.Н.Земскова, В.А.Зорина и др. При участии: А.С.Аникина, В.Н.Белецкого, Е.Ю.Богуша, Анат.А.Громыко и др. М.: Изд-во полит, лит-ры, 1974.
9. Международные отношения после второй мировой войны. В трех томах. Т. М., 1965.
10. Симония Н.А. Движение неприсоединения – важный фактор международной политики. М., 1978

<sup>9</sup> Симония Н.А. Движение неприсоединения – важный фактор международной политики. М., 1978. С.91